

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2022- yilning I choragida
Davlat statistika ishlar dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Boshqarma
boshlig'i B. Maxmadaliyevning**

AXBOROTI

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i B. Maxmadaliyev ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Shuningdek, "2022- yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi" doirasida boshqarma va tuman, shahar statistika bo'limlari tomonidan 2022- yilning I- choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda **8 360,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda **3,2** % ga o'sdi.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-mart oylari davomida, viloyatda iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari **2,9** % ga oshdi. Umumiy hisobda iste'mol sektoridagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'rtacha o'sish sur'ati **4,2** % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar **2,5** % ni va xizmatlar tariflarining o'sish sur'ati **1,0** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-mart oylari davomida iste'mol narxlari darajasining o'rtacha oylik o'sish sur'ati **1,0** % ga teng bo'ldi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylari davomida **4 702,4** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **104,7** % ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **2 746,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,1** % ga yetdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida investitsion faollikning oshganligi kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,5** % ni tashkil etdi. Viloyatda jami **1 441,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **94,6** % ni tashkil etdi.

Davlat xizmatlari agentligi tomonidan ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) **39 061** tani tashkil etib, ulardan **37 260** tasi yoki **95,4** % i faoliyat ko'rsatmoqda. 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda **1 850** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan **1 278** taga kam.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 353,7** mlrd. so'mni, 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,5** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **3 719,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **104,7** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022- yilning yanvar-mart oylarida **146,8** mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – **73,4** mln. AQSH dollarini va import – **73,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra viloyat bo'yicha doimiy aholi soni **3 423,2** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **14,9** ming kishiga yoki **0,4** % ga o'sdi.

Xususan, 2022- yil uchun Statistika dasturiga muvofiq, joriy yilning yanvar-mart oylarida jami **341 ta** statistika ishlari belgilangan hajm va muddatlarda bajarildi.

2022- yilning yanvar-mart oylari uchun Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotlar tayyorlanib, viloyat

hokimligi, viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasi hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq, bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra axborotnomalar va press-revizlar ko'rinishida shakllantirilgan ochiq statistika ma'lumotlari ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida **588 ta**, Facebook sahifasida **425 ta** tahilliy-statistik ma'lumotlar yangiliklar ko'rinishida e'lon qilindi, infografika roliklari boshqarmaning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi.

Shuningdek, **25 ta** infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **77 ta** lavhalar "Qashqadaryo", "Nasaf" telekanallarida doimiy tarzda e'firga uzatilib kelinmoqda.

"Qashqadaryo", "Xazina", "Voqif" va boshqa nashrlarda statistik ko'rsatkichlar aks etgan 70 dan ortiq materiallar chop etildi.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining "Rasmiy statistika" bo'limida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo'jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo'nalishlari bo'yicha **72 ta** statistika ma'lumotlari to'plamlari e'lon qilindi.

Statistika ma'lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi subyektlar o'rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida **85 ta** seminarlar, **96 ta** "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari o'tkazildi, **1756** dan ortiq bukletlar tarqatildi va **98 marotaba** ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.